

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/27.02.2020.Fil.91.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ATABAYEVA GO‘ZAL FARXODOVNA

**OMON MUXTOR ROMANLARIDA SHAKLIY-USLUBIY O‘ZIGA
XOSLIK**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Atabayeva Go‘zal Farxodovna

Omon Muxtor romanlarida shakliy-uslubiy o‘ziga xoslik..... 5

Атабаева Гузал Фарходовна

Формально-стилистическое своеобразие романов Амана Мухтара..... 23

Atabaeva Guzal Farkhodovna

Formal and stylistic uniqueness in Aman Mukhtar’s novels 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 52

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ATABAYEVA GO‘ZAL FARXODOVNA

**OMON MUXTOR ROMANLARIDA SHAKLIY-USLUBIY O‘ZIGA
XOSLIK**

10.00.02 - O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2023

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2021.4.PhD/Fil953 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Guliston davlat universiteti veb-sahifasining (www.gdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Yakubov Islamjon Axmedjanovich filologiya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Nosirov Azimidin Normamatovich filologiya fanlari doktori, professor Fayzullayeva Obidaxon Xolbekovna filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (99 867) 225-40-42; faks: (99 867) 225-02-75; E-mail: gIsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Guliston sh, 4-mavze. Tel.: (99867) 225-40-42).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil "___" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.R. Mamatqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Axrorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

F.G. Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida romanchilik taraqqiyoti va uning tadrijiy takomilini bosqichma-bosqich o'rganish zarurati ortib bormoqda. Xususan, yaratilayotgan romanlarda shakl, uslub va ifoda usullari mutanosibligini aniqlash, badiiy obraz yaratish yo'sinlari mohiyatini belgilash, u yoxud bu roman, shuningdek, alohida romannavis ijodiga xos shakliy-uslubiy tamoyillar tadriji yoxud muayyan avlod yozuvchilari romanlaridagi o'ziga xoslik, milliy hamda jahon romanchilik maktablari amaliyotiga mushtaraklik, poetik mahorat singari muammolarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois har bir davr adabiyotshunosligida badiiy asarning yuzaga kelishi bilan bog'liq ijodiy jarayonning o'rganilishi doimo dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan.

Dunyo adabiyotshunosligida shakl va uslub tushunchasi keng qamrovli tadqiqotlar uchun obyekt bo'lib kelmoqda. Roman shakli va uslubining badiiy funksiyasi muammosiga estetik kategoriya sifatida yondashish, faol fikriy-hissiy harakatdagi shaxs bo'lgan insonni, jamiyat va olamni badiiy-falsafiy, ijtimoiy konseptual yo'sinlarda anglash va anglatish tarzi, ijodkor badiiy olami va poetik mahoratining o'ziga xos qirralarini kashf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz mustaqilligi badiiy adabiyot hamda adabiyotshunoslik ilmiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi. "Yoshlar o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun kerakli muhit va shart-sharoit yaratish zarur"ligi¹ yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Darhaqiqat, har bir ijodkorning badiiy-estetik dunyosi o'ziga xos bo'lib, uning asarlaridagi shakliy-uslubiy yangilanishlarga xos jihatlarni alohida roman va yozuvchi ijodining ichki tadriji jarayonida, shuningdek, yaxlit adabiy jarayon kontekstida qiyosiy o'rganish qo'yilgan muammoning muhim va dolzarbligini ko'rsatadi. Xalqimiz tafakkur yuksakliklarini belgilovchi badiiy nasrning salmoqli janri bo'lmish milliy romanlar mazmuni, shakli va ifoda uslubida yuzaga kelayotgan adabiy ta'sir, ijodiy o'zlashtirish, individuallik hamda shu yo'sinlardagi davriy, mintaqaviy, dunyoviy mushtaraklik sabablarini belgilash, yo'qotilgan epik butunlikni qayta tiklashga intilish jarayonlarini yanada chuqurroq tahlil va tadqiq etish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF - 4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурининг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2017 йил, 16 январь.

kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot asosiga qo'yilgan zamonaviy romanlarda shakl va uslub muammosi jahon adabiyotshunosligida muayyan darajada o'rganilgan. Jumladan, V.G.Belinskiy, M.M.Baxtin, D.Zatonskiy, A.N.Veselovskiy, M.B.Xrapchenko, V.Vinogradov, V.V.Kojinov, D.Lukach, V.Dneprov, Yu.Borev, V.B.Aleksandrov, N.A.Bugrina, A.Yu.Petanova, V.V.Polonskiy, N.V.Proskurnya, Ye.A.Surganova² Xose Ortega-i-Gasset, K.G.Yung singari dunyoning mashhur faylasuf-estetlari va adabiyotshunoslari mavzuga doir muhim ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan.³ Ularning ilmiy izlanishlarida roman janrining o'ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot tamoyillari, jumladan shakl va uslub masalalari bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlar ham yoritilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida Z.Pardayeva, Sh.Doniyorova, I.Yakubov, G'.Murodov, M.Pirnazarova, D.To'rayevalarning dissertatsion tadqiqotlarida istiqloq davri o'zbek romanchiligidagi dolzarb muammolar tadqiqi bilan bog'liq holda O.Muxtor romanlari ham muayyan darajada o'rganilgan⁴. Keyingi yillarda yaratilgan bir qator monografik tadqiqotlarda O.Muxtor romanlari maxsus tadqiq

² Александров В.Б. Исторический портрет и его функционирование в историческом познании // Биография как вид исторического исследования. – Тверь, 1982. – С.52-69; Бугрина Н.А. Документальность биографического повествования и его жанры // Факт, домысел, вымысел в литературе. – Иваново, 1987. – С. 117-131; Петанова А.Ю. Романистика Юрия Тынянова и ее жанровое своеобразие. Дис. канд. филол. наук. – М.: МГУ имени М.В.Ломоносова, 1990; Полонский В.В. Биографический жанр в творчестве Д.С.Мережковского 1920-1930-х годов. Дис. канд. филол. наук. – М.: МГУ имени М.В.Ломоносова, 1998; Проскурня Н.В. Ю.Н.Тынянов как писатель-литературовед: жанрово-стилевой эксперимент в историко-биографическом романе. Дис. канд. филол. наук. – М.: МГУ имени М.В.Ломоносова, 1999; Цурганова Е.А. Современный роман и особенности литературы второй половины XX века // Современный роман. Опыт исследования. – М.: 1990. – С.3-24.

³Белинский В.Г. Разделение поэзия роды и виды. ПСС. Т.5. – М. – Л., 1954; Бахтин. М.М. Эпос и роман // Вопросы литературы. – 1970. - №1. – С. 95-123; О методологии исследования романа. Литературно-критические статьи. – М.: Художественная литература, 1986; Затонский Д. Искусство романа и XX век – М.: Наука, 1982. – С.3; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л., 1940; Храпченко М.Б. О разработке проблемы поэтики и стилистики. Изв. АН отд. лит. и языка. 1961.Т.20 В.5; Виноградов В.В. О языке художественной прозы. – М.: Наука, 1980; Виноградов В. Поэтика русский литературы. – М.: Наука, 1976. С. 191-195; Кожин В. Происхождения романа. – М.: Советский писатель, 1963; Лукач Д. Теория романа. – Варшава, 1963; Днепров В. Черты романа XX века. – М. –Л.: Советский писатель, 1965; Хосе Ортега-и-Гассет. Мысли о романе. – В. Кн: Эстетика. Философия культур. – М., 1991. – С. 265.

⁴ Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари: – филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент: 2003; Пирназарова М. Ҳозирги ўзбек романларида услубий изланишлар (О.Мухтор, Х.Дўстмухаммад, У.Ҳамдам, Т.Рустам романлари мисолида): – филол. фан. номз... дисс. – Тошкент: 2006; Донниёрова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий руҳ ва қахрамон муаммоси: – филол. ф. д-ри... дисс. – Тошкент: 2012.; Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – филол. ф. д-ри. дисс. – Тошкент: 2018; Муродов Ғ. Тарихий романнинг муштараклик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари. – филол. ф. д-ри. дисс. – Тошкент: 2018 Тўраева Д. Бадий гоя, ижодий тасаввур ва эстетик талқин масаласи. – филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD)... дисс. – Фарғона: 2019.

etilgan. Jumladan, tadqiqotchi O. Nazarovning “Omon Muxtor romanlarida badiiy xronotop muammosi” nomli (PhD) dissertatsiyasida adib romanlarida qo‘llanilgan xronotopning badiiy matn va syujetda tutgan o‘rni o‘rganildi. Mazkur tadqiqotga O. Muxtorning “Yillar shamoli”, “Egilgan bosh”, “Ffu”, “Ming bir qiyofa”, “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Tepalikdagi xaroba”, “Ayollar mamlakati va saltanati”, “Xotin podshoh”, “Aflotun”, “Maydon”, “Navoiy va rassom Abulxayr” (“Ishq ahli”, “Buyuk farrosh”) singari bir qator romanlari obyekt sifatida tanlangan. Adib romanlaridagi xronotoplarning badiiy-funksional jihatlari, badiiy zamon va makonning asar syujet-kompozitsion qurilmasini vujudga keltirishdagi o‘rni masalasi kuzatilib muayyan umumlashmalar chiqarilgan⁵.

N. Azizovning “Omon Muxtor romanlari poetikasi: realizm va fantastika uyg‘unligi” nomli (PhD) dissertatsiyasida yozuvchi romanlari poetikasidagi realizm va fantastika uyg‘unligi masalasi o‘rganilgan. Unda yozuvchi asarlarida realizm va fantastikaning qorishiq holda kelishi milliy folklor va mumtoz adabiyotimiz tajribalari bilan birga, dunyo adabiyotiga xos tasvir prinsiplari bilan bog‘liq ekanligi asoslangan. Qo‘yilgan muammo adibning “To‘rt tomon qibla” trilogiyasi, “Aflotun”, “Ffu” kabi romanlari misolida tadqiq etilgan. Tadqiqotchi O. Muxtor romanlari poetikasining muhim qirralarini yoritishga intiladi.⁶

Adabiyotshunos I. Yaqubov mustaqillik davri o‘zbek romanlaridagi poetik yangilanishlar va ularning yuzaga kelishiga ta‘sir etgan omillarni joriy adabiy jarayon konteksti va jahon adabiyoti aspektida o‘rganar ekan, E. Samandar, X. Do‘stmuhammad, N. Eshonqul, U. Hamdam, Isajon Sulton singari adiblar bilan bir qatorda, O. Muxtor romanlarini ham muayyan darajada tahlilga tortadi. I. Yaqubov adib romanlarining poetik o‘ziga xosligi, ifoda va tasvirning betakrorligi, joriy adabiy jarayonda O. Muxtor romanlarining o‘rni singari masalalarni baholash bilan bir qatorda, ularda uchraydigan ayrim kamchilik va nuqsonlarni ham xolisona ko‘rsatadi⁷.

Professor Sh. Doniyorova “Istiqloq davri o‘zbek romanlarida milliy ruh va qahramon” nomli monografiyasida O. Muxtorning “Tepalikdagi xaroba”, “Aflotun”, “Maydon” singari romanlarini ayni muammolar bilan bog‘liq holda tadqiq etadi. Ushbu monografiyada O. Muxtorning qahramon xarakterini yaratish mahorati, folklor an‘analari va mifopoetik talqinning yozuvchi romanlaridagi ifodasi masalasiga e‘tibor qaratilgan. O‘zbek romanlarida tasvir usullari va ifoda ko‘lami kengaygani adib romanlari misolida yoritilgan⁸. Shuningdek, bir qator ilmiy maqola, taqriz va davra suhbatlarida ham O. Muxtorning o‘zbek romanchiligi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi yuqori baholangan⁹

⁵ Назаров Ў. Омон Мухтор романларида бадий хронотоп муаммоси: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Қарши, 2018;

⁶ Азизов Н. Омон Мухтор романлари поэтикаси: реализм ва фантастика уйғунлиги: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Андижон, 2022

⁷ Қаранг: Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Монография. – Т.: 2020

⁸ Дониёрова Ш. Истиклол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон. – Т.: Мумтоз сўз, 2011

⁹ Дониёрова Ш. Омон Мухтор ижодида фольклор аънаналари. – Ўзбек тили ва адабиёти, 2001. № 5; Норматов У. Куронов Д. Романнинг янги умри. – Жаҳон адабиёти, 2001, № 9; Солижонов Й. Ўзбек полифоник романлари. Ўзбек тили ва адабиёти. 2002. №5; Ёқубов И. Рух ва фикр эркинлиги. // “Илм сарчашмалари” УрДУ ахборотномаси. 2002, №4; Ёқубов И. Омон Мухтор романлари. “Тил ва адабиёт таълими” журнали .2011, № 6 Шарафиддинова М. “Минг бир қиёфа” талқини. – Жаҳон адабиёти, 2008, №11;

Ko‘rinadiki, o‘zbek adabiyotshunosligida amalga oshirilgan bir qator tadqiqotlarda O.Muxtor hayoti va ijodi haqida salmoqli fikr-mulohazalar ilgari surilgan bo‘lsa-da, adib romanlari shakliy-uslubiy xususiyatlari monografik asosda maxsus o‘rganilmagan. Adabiyotshunosligimizda amalga oshirilgan tadqiqotlardan chiqariladigan ilmiy-nazariy umumlashmalar Omon Muxtor romanlaridagi shakliy-uslubiy izlanishlar masalasini monografik aspektda tadqiq etishda ilmiy-nazariy asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №2 “O‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligining dolzarb muammolari: talqin va tadqiq” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy o‘zbek romanchiligi taraqqiyotida jiddiy yangilik bo‘lgan Omon Muxtor romanlarining mazmun-mohiyati, shakliy va uslubiy o‘ziga xosligini yozuvchining tafakkur kengligi, taxayyul yuksakligi hamda badiiy voqelik yaratish tamoyillari negizida o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Omon Muxtor (Muxtorov Omon Sulaymonovich) dunyoqarashi, uslubining shakllanishi va kamol topishiga ta‘sir etgan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-madaniy, oilaviy-maishiy jarayonlar va badiiy-estetik omillarni asoslash;

Omon Muxtor individual uslubining shakllanishi va tadrijini belgilash. Bu romanlar ijtimoiy-madaniy voqelikni millat manfaatlariga mutanosib yo‘sinda anglagan, mulohaza-muhokama-munosabat triadasi bosqichlaridan o‘tkazib, badiiy ifodalagan yozuvchi intellektining o‘ziga xos milliy va uslubiy nutqi ekanini ko‘rsatib berish;

yo‘zuvchi adabiy-estetik tamoyillarini adabiy an‘anaga munosabat va ijodiy individuallik muammolari nuqtayi nazaridan salafllari va zamondoshlari shakliy-uslubiy izlanishlari bilan qiyosiy yo‘sinda tadqiq etish. Mustaqillik davri romanlari shakli va uslubiga xos xususiyatlar misolida yangilanayotgan romanchilikdagi taraqqiyot tamoyillarining o‘rnini aniqlash;

shakl va uslubning syujet va kompozitsiya yaratishdagi rolini aniqlash. O.Muxtor romanlaridagi syujet qurilishi va ramziy-majoziy talqinlar, shakliy-kompozitsion ixchamlik, xususan “Ffu”romani kompozitsiyasidagi uslubiy o‘ziga xoslikning milliy va jahoniy adabiy asoslarini tahlil etish;

romanda shakl va uslub muammosining ilmiy-nazariy asoslarini belgilash. “Milliy uslub” (I.I.Vinkelman, I.G.Gerder, I.V.Gyote) kategorial tushunchasining millat aqliy va hissiy idroki hamda insonparvar mafkurasining poetik ifodaga ko‘chishi ekanini ko‘rsatish. Bu tipdagi badiiy matnlar birinchi navbatda, shu millat vakillari, so‘ngra insonparvarlik g‘oyalari go‘zal ifodasi va badiiy

Тоирова Н. Омон Мухтор ва О.Уайльд романларида иблис образи. – Ўзбек тили ва адабиёти, 2011. № 1; Тоирова Н. “Кўзгу олдидаги одам” романида кўзгу деталнинг ғоявий-эстетик вазифалари. Илмий хабарнома, АДУ, 2016. № 2; Йўлдошев Қ. Юксалиш манзиллари // Китоьда: Сўз ёлкини. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.12 ноябрь; О. Мухтор, Отабоев А. Кўзгу – рух поклиги. (давра суьхбати). // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1995 й. 10 февраль

latofatining darajasiga ko'ra, umuminsoniyat uchun ham qadrlı ekanini tadqiq etish;

O.Muxtorning adabiy qahramon yaratish, xarakterlar psixologizmini ifodalashdagi shakliy-uslubiy jihatdan o'ziga xos bo'lgan izlanishlari: (jumla tuzish, rivoya tarzi, badiiy detallar funkcionalligi, syujet qurilishi) ni adibning poetik mahorati bilan bog'lab o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Omon Muxtorning "Ffu", "Ayollar mamlakati va saltanati", "Maydon", "Aflotun", "Navoiy va rassom Abulxayr", "Tepalikdagi xaroba" asarlari olingan.

Tadqiqotning predmetini istiqlol davri o'zbek romanlarida kuzatiluvchi shakliy-uslubiy o'ziga xosliklarni romannavis ichki-intellektual ehtiyoji, zamon talablari, milliy-adabiy an'ana va jahon nasriga xos yutuqlarni ijodiy o'zlashtirish natijasida Omon Muxtor romanlarida paydo bo'lgan poetik o'zgarishlar, sifatıy siljishlarning namoyon bo'lish yo'sinlari bilan bog'liq masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tasniflash, biografik, sotsiologik, analitik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va badiiy-estetik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagılardan iborat:

O.Muxtor romanlaridagi shakliy-kompozitsion va badiiy ifodaviy xususiyatlar hayot materialining badiiy konsepsiyani shakllantirish, yozuvchi dunyoqarashi, makon va zamon, adabiy ta'sir, ijodiy o'zlashtirish, shakliy-uslubiy o'ziga xoslik, badiiy nutq uslubi, poetik tasvir usullari xilma-xilligi, badiiy detallar funkcionalligida namoyon bo'lishi nazariy tushuncha va kategorial tamoyillarga tayanilgan holda dalillangan;

adib romanlarida shakl va mazmun mutanosibliği, yozuvchi dunyoqarashi, poetik ifoda uslubi kabi faktorlar hamda uslubiy yangilanishlar rang-barangligi tobora globallashayotgan zamon va yagona ekspsiologik maydonga aylangan makon, shuningdek, jadal taraqqiyotdagi hayot maromi bilan chambarchas bog'liq ekanligi asoslangan;

O.Muxtor tasvir obyektini yagona nigoh bilan ko'rish, tasavvur qilish imkoniyatini yuzaga chiqarish hamda kitobxon diqqatini asosiy markazga qaratishga, yangi tipdagi qahramonlar obrazini ifodalashning o'ziga xos usullarini qo'llashga intilgani bilan bog'liq badiiy tasvir va talqin poetikasidagi o'zgarishlar asosida isbotlangan;

istiqlol davri o'zbek romanchiligi mumtoz adabiy an'analar, realistik romanchilik tajribalari, adabiy oqimlarga xos modernistik va postmodernistik xususiyatlar adabiy ta'sir va ijodiy individuallikning sintezi ekanligi, zamonaviy milliy romanlarda falsafiy mushohada teranlashib, intellektual romanlarga xos poetik xususiyatlar yorqin namoyon bo'layotgani, tasviriy ifodalarda ramziylikning roli ortgani badiiy-estetik konsepsiyasini belgilashda muhim omil ekanligi Omon Muxtor romanlari misolida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagılardan iborat:

roman janri shakl va uslubi bilan bog'liq poetik qonuniyatlar ijtimoiy-estetik zaruriyat samarasi ekani Omon Muxtorning milliy romanchiligimizdagi shakliy-uslubiy izlanishlari misolida an'ana, adabiy ta'sir, ijodiy individuallik bilan

chambarchas bog‘lab, uzviylik hamda uzluksizlik konsepsiyasi negizida ochib berilgan;

O.Muxtor nasriy izlanishlaridagi shakliy-ifodaviy, ijodiy-uslubiy o‘ziga xoslik negizida mustaqillik davri o‘zbek romanlaridagi uslubiy-kompozitsion yangilanishlar, xususan, “modern” romanlar arxitektonikasida kuzatiluvchi kompozitsion-struktur va uslubda namoyon bo‘layotgan badiiy-ifodaviy yangilanishlarning mohiyati haqidagi nazariy xulosalar ishlab chiqilgan;

zamonaviy o‘zbek romanlarida umummilliy, umumbashariy muammolar badiiy talqini mulohaza va muhokamaga moyil yangi tipdagi intellektual qahramonlar obrazi kirib kelgani, mushohada, taxayyul va mubohasaga asoslanuvchi uslubiy izlanishlar salmog‘ining ortishi shakliy-uslubiy individuallik samarasi ekani, istiqloq davri o‘zbek romanlari shakl va uslub jihatidan dinamik yangilanish jarayonlarini boshidan kechirayotgani ilmiy-nazariy tahlil va tadqiqatlar asosida dalillangan;

tadqiqot natijalari istiqbolda adabiyotshunoslik nazariyasi, yangi o‘zbek adabiyoti, hozirgi adabiy jarayon fanlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot, darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish uchun manba bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, qo‘yilgan muammoning aniq va yetarlicha dalillangani, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, dunyo adabiyotshunosligining yangi yo‘nalishlari va tahliliy usullari asosida ilmiy-nazariy asoslangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual g‘oyalar milliy roman janri tadrijiy takomili, xususan, O.Muxtor romanlariga xos yangilangan shakliy-uslubiy o‘ziga xosliklar negizida yaxlit adabiy jarayon kontekstida monografik planda ilk bora tizimli tarzda tadqiq etilgani, nazariy xulosalar roman poetikasi, shakliy-kompozitsion o‘zgarishlarga uchragan adabiy hodisalar mohiyatiga tayanib chiqarilgani, joriy adabiy jarayonda kuzatilayotgan yangilanishlarni tushunish va tushuntirishni yanada yengillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyadagi xulosa va tavsiyalardan oliy ta’lim muassasalari uchun “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “Badiiy tahlil asoslari” kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari mazmunini boyitishda, Omon Muxtor shakliy-uslubiy izlanishlari, poetik mahoratiga oid maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, mustaqillik davri romanchiligining shakl va uslubi masalalari, umuman, roman janri kompozitsion-struktur sathi va badiiy uslubi haqida ma’ruzalar o‘qish, amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O.Muxtor romanlarida shakliy-uslubiy o‘ziga xoslik masalasini tadqiq etish hamda uning nazariy asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Omon Muxtor romanlaridagi shakliy-kompozitsion va badiiy ifodaviy xususiyatlar hayot materialining badiiy konsepsiyasini shakllantirish, yozuvchi dunyoqarashi, makon va zamon, adabiy ta'sir, ijodiy o'zlashtirish, shakliy-uslubiy o'ziga xoslik, badiiy nutq uslubi, poetik tasvir usullari xilma-xilligi, badiiy detallar funkcionalligida namoyon bo'lishiga doir xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan FA-F-1-005 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunoslik tarixini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihani bajarishda foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 28-fevraldagi O'zR FA Qoraqalpoq bo'limining 69/1-son ma'lumotnomasi). Natijada O.Muxtor romanlarida voqelik poetik ifodasida folklorga murojaat qilish tajribalaridan foydalanib, har bir poetik unsurning mohiyati va funksiyasi belgilanib, badiiy-estetik tahlillar mazmunini boyishiga erishilgan;

adib romanlarida shakl va mazmun mutanosibli, yozuvchi dunyoqarashi, poetik ifoda uslubi kabi faktorlar hamda uslubiy yangilanishlar rang-barangligi tobora globallashtayotgan zamon va yagona ekspsiologik maydonga aylangan makon, shuningdek, jadal taraqqiyotdagi hayot maromi bilan chambarchas bog'liq ekanligiga doir ma'lumotlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 – "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAUning 2022-yil 31-oktabrdagi 04/1-30/9-son ma'lumotnomasi). Natijada, O.Muxtor romanlari poetik ifodasida nasrdan she'rga, she'rdan nasrga erkin ko'chish, o'zga shoirlar she'riy satrlaridan erkin foydalanish yo'sinlarida adib uslubining namoyon bo'lishi hamda syujet yaratish tajribasi haqidagi xulosalari asosida adabiyotshunoslikdagi mavjud qarashlar yanada boyitilgan.

istiqlol davri o'zbek romanchiligi mumtoz adabiy an'analar, realistik romanchilik tajribalari, adabiy oqimlarga xos modernistik va postmodernistik xususiyatlar adabiy ta'sir va ijodiy individuallikning sintezi ekanligi, zamonaviy milliy romanlarda falsafiy mushohada teranlashib, intellektual romanlarga xos poetik xususiyatlar yorqin namoyon bo'layotgani, tasviriy ifodalarda ramziylikning roli ortgani badiiy-estetik konsepsiyasini belgilashda muhim omil ekanligi bilan bog'liq ilmiy-nazariy xulosalardan "O'zbekiston" teleradiokanali DUK "Madaniy ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Millat va ma'naviyat", "Adabiy jarayon", "Ta'lim va taraqqiyot" radioeshittirishlari ssenariylarini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 6-fevraldagi O'z/Rv-23.13-son ma'lumotnomasi). Natijada, radioeshittirishlar ssenariylari yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilgan, milliy romanchiligimiz yutuqlari keng ommaga havola etilib, ularning ilmiy-ma'rifiy saviyasini yanada yuksalishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, jumladan, xorijiy jurnalda 2 ta, respublika jurnallarida 1 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan bo'lib, umumiy hajmi 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Shakl va uslubning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan. Birinchi bob uch fasldan tarkib topgan. Bu bobda Omon Muxtor romanlarida "milliy uslub", yozuvchi individual uslubining shakllanishi va tadriji adib romanlarida kuzatiluvchi o'ziga xos badiiy talqin va tasvir yo'nalishi orqali shaxsning o'z-o'zini anglash jarayoni, shakl va uslub kategorial tushunchalari ilmiy-nazariy jihatdan o'zaro uzviy bog'liq birliklar sifatida o'rganilgan.

"**Romanda shakl va uslub**" deb atalgan ilk faslda adabiy asarning mazmun-mohiyati uning mutanosib shakli orqali idrok etilishi, yozuvchining hayot va insonga bo'lgan munosabat yo'sini, o'z nuqtayi nazarini ifodalash tarzi, uni bayon qilish uslubida namoyon bo'lishi tadqiq etilgan.

Shakl – falsafiy tushuncha bo'lib, ko'pincha mazmun bilan birgalikda keladi. Chunki shakl muayyan narsa va hodisa mazmunning mavjudlik usuli va ichki tuzilishini ifoda etadi. Mazmunsiz shakl va shaklsiz mazmun mavjud bo'lolmagani kabi bu ikki falsafiy tushuncha bir-birini taqozo etib, narsa-hodisalarning mavjudligini kafolatlaydi. Shunga qaramasdan, falsafiy-estetik adabiyotlarda mazmun mohiyatan birlamchi va shakl ikkilamchi hodisa sifatida izohlanadi. Bu tushuncha nisbiy xarakterga ega bo'lib, unda shaklning mazmunga mutanosib bo'lishi va hamisha uni ifodalashi nazarda tutiladi xolos. Adabiyot va san'at asarlarida mazmun va shakl badiiy asarning bir-birini taqozo etuvchi ikki tomoni hisoblanadi. Jumladan, badiiy asarning shakliy tomoni: uslub, janr, kompozitsiya, badiiy nutq, ritm singari unsurlarni qamrab oladi. Uning mazmuniy tomoni esa: mavzu, fabula, konflikt, xarakterlar va sharoit, badiiy g'oya, tendensiya kabi jihatlardan iborat bo'ladi. Ammo syujetda shakliy-mazmuniy jihatlar yaxlitlashadi. Ularning yagona butunlik ekani yorqin ko'zga tashlanadi. Umuman, bu ikki jihatni bir-biridan keskin ajratib o'rganib bo'lmaydi.

Zamonaviy ilm-fan ham shakl va mazmuni yaxlitlikda o'rganishni yoqlaydi. Zotan, adabiy asar mazmun va mohiyati u yoxud bu shakldagina yuzaga chiqadi. Ularning bir-biriga o'tish hollari faylasuflar, san'atshunoslar, adabiyotshunoslar tomonidan inkor qilinmaydi. Ko'pincha tarixiy-adabiy taraqqiyot jarayonida asrlar davomida qat'iylik mazmunning yangi shaklga aylanish hollari kuzatiladi.

Roman hanuz shakllanish jarayonida. Shu bois, uning qat'iy kompozitsiyasi, tematikasi va boshqa janriy chegaralari ham uzil-kesil belgilanmagan. Hajm kattaligi, qahramonlar sonining ko'pligi, epik bayon batafsilligi kabi belgilar esa, endilikda bu janrni to'la tavsiflay olmaydi.

Adabiy ijodga xos uslub tushunchasi so'z san'atining barcha jihatlarida yorqin namoyon bo'ladi. Jumladan:

1. Uslubning yozuvchi shaxsiyatidagi xususiy jihatlariga bog'liqligi.

2. Uslubning estetik va psixologik yondashuvni taqozo etishi.

Badiiy uslubga xos quyidagi jihatlarni ham ta'kidlab ko'rsatish mumkin:

1. Muallif va hikoyachining o'zaro mos kelishi, muallif "men"ining yorqin va erkin ifodasi.

2. Til vositalari roviy badiiy obrazini, hissiy holatini, kayfiyatini yetkazish usuli ekani.

3. Stilistik figuralar – metafora, taqqoslash, metonimiya va boshqalar, emotsional-ekspressiv vositalar, frazeologik birliklardan foydalanish.

4. Ko'p uslublilik. Boshqa uslublar (so'zlashuv, publitsistik kabi), til vositalaridan foydalanishning ijodiy niyat ijrosiga bog'liqligi. Bu kombinatsiyalar asta-sekin muallif uslubini shakllantiradi.

5. Jonli so'zlashuvga xos so'zlarning ko'p ma'noliligidan foydalanish. Ko'p ma'noli so'zlar yordamida voqea-hodisalarni tasvirlash va kontekstga yashirin ma'no yuklash imkoni yuzaga chiqadi.

6. Badiiy uslubning maqsadi - muallifning his-tuyg'ularini kitobxonga yetkazish, unda muayyan hissiy kayfiyatni uyg'otishdan iborat ekanligi tadqiq etilgan.

Bobning **“Omon Muxtor romanlarida “milliy uslub”** deb nomlangan ikkinchi faslida **“Milliy uslub”** atamasi – kategorial tushuncha ekanligi, milliy uslub millat aqliy, hissiy idroki va insonparvar mafkurasining poetik ifodaga ko'chish hodisasi bo'lib, bunday matn birinchi navbatda shu millat vakillari uchun, so'ngra insonparvarlik g'oyalari go'zal ifodasi va badiiy latofati darajasiga ko'ra, umuminsoniyat uchun ham qadrligi ekanligi tahlil etilgan.

“Milliy uslub” masalasi ritorik (monistik) konseptuallikdan keskin farqlanuvchi, yangicha yondashuv – til va tafakkurning bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar,- deb qarashni talab etadi. Zotan, uslub muayyan millat va uning intellektual salohiyatga ega bo'lgan vakilining milliy nutqidir. Bu nutqda shu millatning ijtimoiy-madaniy voqelikni o'z manfaatlariga mutanosib yo'sindagi anglami, mulohaza, muhokama-yu, munosabati o'z ifodasini topadi.

Milliy badiiy tafakkurdagi sifat jihatidan siljishlar yuzaga kelishi negizida sobiq ittifoq davridagi adabiy siyosatning barham topishi va mustaqillik davri fikrlar plyuralizmiga keng yo'l ochgani bosh sababdir. O.Muxtorning yangi tipdagi

romanlarida jahon zamonaviy romanchiligi tajribalariga uyg'un keluvchi quyidagi belgi-xususiyatlar yaqqol ko'rinadi:

a) an'anaviy realizmga xos aniq makon va zamon tushunchasining mislsiz kengayishi, turfa olamlar o'rtasida aniq chegaralar o'rnini "tartibsiz"lik, "aralash-quralash"lik egallashi.

b) voqea-hodisalarni izchil bayon etishdan chekinilganligi;

c) adabiy qahramonlar ruhiyati ifodasida sabab-oqibat mantig'iga asoslanilmasligi;

d) reallik bilan xayolot, o'ng bilan tush qorishiq holda kelishi va voqelik ko'pincha qahramonlar hayolot va ong sohasida kechib, hayotning o'ziga xos badiiy modeli yaratilishi.

O.Muxtor vaqtning obyektiv oqimini buzmaganda, epik bayonni erkin tarzda amalga oshiradi. U roman voqealarini boshidan, oxiridan va umuman, istalgan lahzasidan boshlayveradi. E'tiborli jihati shundaki, "muallif vaqti" ikki muhim holatga ko'ra o'zgarib turadi:

1. **Adibning tasvirlangan voqealarda ishtirok etishiga ko'ra.** Bunda muallif vaqti o'z mustaqil hikoya chizig'iga ega bo'ladi.

2. **Yozuvchi tasvirlangan voqealarda ishtirok etmasligi (kuzatuvchi maqomida turishi)ga ko'ra.** Bunday holda voqea vaqti va muallif vaqti sezilarli darajada farqlanadi.

O.Muxtor romanlari poetikasini chuqur tadqiq etish adabiyotshunosligimiz, adabiy tanqidchiligimiz oldidagi ko'plab chigal masalalarni oydinlashtirish imkonini beradi.

Bobning **"Yozuvchi individual uslubining shakllanishi va tadriji"** deb nomlangan uchinchi faslida uslub ijodkor shaxsi va ijodiy individualligini belgilovchi muhim tushuncha ekanligi, yozuvchining uslubiy o'ziga xosligi badiiy asarning barcha sathlari (poetika va ritorika) da namoyon bo'lishi tadqiq etilgan.

Badiiy matn va shakliy-uslubiy ifoda qonuniyatlaridan kelib chiqishgina uslub tabiatini to'g'ri tushunish imkonini berishi, uslubiy izlanishlar, xususan, O.Muxtor uslubini;

a) ijod bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik sharoitning yetilishi;

b) yozuvchi ma'naviy-ruhiy olamidagi tebranishlar;

c) milliy va jahon adabiyoti tajribalariga hamohanglikdan izlash lozim.

O'zbek nasridagi milliy uslub tadrijiy tarzda uzluksiz rivojlangan. Bugungi o'zbek romanchiligidagi uslubiy izlanishlarga xos tajribalar milliy zaminda tug'ilib, shakllanmoqda. Bu esa davr talabi, yangilanayotgan badiiy tafakkur, kitobxon ma'naviy-ruhiy ehtiyoji, muayyan ijodkorning iqtidori, salohiyati, izlanishdagi faolligi, qiziqishlar doirasi singari bir qator omillarga bog'liqdir.

Uning romanlarida o'tmish va hozir, kelajak va o'tmish bimalol bir zamonda yashaydi. O.Muxtor badiiy vaqtni o'z ijodiy niyatiga bo'ysundirgani uchun obyektiv vaqtning yuqorida sanalgan ketma-ketligi, ya'ni epik bayondagi xronologik izchilik buziladi. Yozuvchi epik ko'lamdor janr imkoniyatlaridan foydalanib, qaysidir ma'noda, real zamon bilan ziddiyatga ham kirishadi. Natijada, uning asarlariga shartli zamon va makon tushunchasi kirib keladi. Shunga mos rivoj tarzi tanlanib, badiiy voqelik mif, ertak, lirik she'r, doston, romannavisning

o‘z salafлари ijodiga ishoralari, qahramonlarning tushlari, maktublari, kundaliklari singari ko‘plab badiiy vositalar hisobiga to‘ldiriladi va epik ko‘lamdorlik behad orttiriladi. Anglashiladiki, O.Muxtor romanlaridagi badiiy vaqt kategoriyasini quyidagi negizlarga tayanib tushunish va tushuntirish mumkin:

- a) yozuvchi ijodiy niyatining ijrosi uchun qulay shakl va ifoda izlangani;
- b) adib ijodining romanchilikdagi ichki tadriji;
- c) zamonaviy romanlarda folklor asarlari va mumtoz adabiyotimizning shakliy-ifodaviy usullari zahirasi (arsenali)dan ijodiy foydalanish;
- d) bir asrlik milliy va ko‘p asrlik jahon romanchiligi poetik tamoyillari, badiiy ifoda yo‘sinlarini ijodiy o‘zlashtirish.

Poetikaning muhim xususiyatlaridan biri – badiiy asarning shakliy qurilishini belgilovchi umumiy tamoyil hisoblangan uslubni o‘rganish, keng ma‘noda alohida ijodkor shaxsini o‘rganishdir. Uslub ijodkor shaxsi bilan bog‘liq bo‘lib, ijodiy individuallikni belgilaydi. Uslubda namoyon bo‘luvchi ijodiy o‘ziga xoslik badiiy asar, jumladan, roman janri barcha sathlari: badiiy matn tuzilishi, badiiy voqelikni yaratish tamoyillarida birdek namoyon bo‘ladi. Uslub romandagi shakl unsurlarini muayyan qonuniyat asosida yaxlitlikda birlashtiradi. Shuningdek, asardagi har bir uzviylikning mohiyati va vazifasini ham belgilab beradi. Qolaversa, individual uslubni tahlil va tadqiq etish yozuvchining g‘oyaviy-badiiy niyatini tushunishimizga yordam beradi.

Shu ma‘noda, yozuvchi romanlarida yorqin bo‘y ko‘rsatuvchi Sharq-islom mafkurasi va dunyo romanchiligi tajribalarining ijodiy o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq tozarishlar millat ruhidagi axloqiy-ma‘rifiy qadriyatlarga yaqinlik jihatidan o‘ziga xoslik kasb etadi. Yozuvchi o‘z uslubiy izlanishlarida an‘anaviy shakl va uslubiy ifoda yo‘sinlaridan butkul chekinmagan holda, modern adabiyot bilan o‘zaro muloqotning samarador yo‘llarini izlashga intilgan.

O.Muxtorning “Ko‘zgu oldidagi odam” romani shakliy-uslubiy o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Obrazlar ruhiyati negizida ko‘pchilikni o‘ylantirgan muammolar badiiy tahlil etilgan. Roman modern adabiyotining milliy namunasi bo‘lib, unda sharqona o‘ziga xoslik, qalbi pok va diyonatli ota-bobolarga munosib bo‘lishga e‘tibor qaratiladi. Roman voqeligi tush, xayol va hayot qorishiqligida tasvirlangani uchun daf‘atan muallif haqiqatini anglash qiyinroq kechadi. Unda ijtimoiy hayot manzaralari tasviri asar qahramoni Valijon tilidan hikoya qilinadi. U o‘zining g‘urbat-hasratli, orzu umidli hayotini ko‘z o‘ngida qayta jonlantirib, zamonaga, zamondoshlariga munosabat bildiradi. O‘zining ko‘rgan-kechirganlarini anglashga uringan Valijon xayollar olamiga, xotiralar ummoniga sho‘ng‘iydi. Natijada uning o‘y-xayollari turli afsona, ertak, rivoyat va iltijolarga ham ulanib ketadi. Ushbu romanda yozuvchining ijodiy niyati Valijon timsolida XX asrda butun bir avlodning ruhan parchalanganini tasvirlashdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Sujet va kompozitsiya yaratishda shakl va uslub**” deb nomlangan. Bobning “**Adib romanlarida sujet va ramziy majoziy talqin**” deb nomlangan birinchi faslida Omon Muxtor voqelikni ifodalash, ruhiy holatlarni tasvirlash maqsadida dialog, monolog, kinoya, qochirim, ramz, majoz, o‘xshatish kabi poetik komponentlardan unumli foydalanishi, “Ming bir qiyofa” romanida ayrim ramzlar tush vositasida ifodalanishi tadqiq etilgan.

Asardagi ayrim ramzlar tush vositasida ifodalanadi. Romandagi Sadirjon o‘y-iztiroblari tushdagi voqealar fonida teran yoritiladi. Yozuvchi qahramon tashvishlari sababini tush orqali mufassal yoritishga erishgan. Romanning ikkinchi hikoyatida kuchli shamol shahar markazidagi marmardan tiklangan to‘qqiz qavatli binoni allaqayerga uchirib ketadi. Ushbu binoda “Tarix va madaniyat” tashkiloti joylashgan bo‘lib, bino bilan birga uning hodimlari ham dom –daraksiz ketishadi. Sadirjonning sevgilisi Gulxumor ham shu tashkilotda xizmat qilib, undan ayrilgan yigit chuqur qayg‘uga botadi. Ana shunday kunlarning birida u tush ko‘radi. “Besh-o‘nta jin gurillab yonayotgan gulxan atrofida davra qurib, qattiq nog‘ora chalishmoqda. Sadirjon ko‘rgan yuqoridagi tush bir jihatdan qahramon ichki kechinmalari, fikr-o‘ylari bilan bog‘lansa, yana bir tomondan roman janrining ichki tabiati bilan bog‘lanadi. Unda tushdagi ramziylik orqali real hayotga ishoralar qilinib, uning mazmuni ramzlar mohiyatini anglash orqali namoyon bo‘ladi.

Ramz va majoz yozuvchi niyatini badiiy asarga ko‘chirishga yordam berishi bilan bir qatorda, inson ruhiy olamini kashf etish, hayotiy muammolar mohiyatini ifodalashda ham muhimdir. O.Muxtor «Aflotun»¹⁰ romanida ma‘naviy-axloqiy tubanliklardan saqlanish, imon-e‘tiqod butunligi va miskin kishining mo‘minlik yo‘li haqida fikr yuritiladi. Uning qahramoni bu o‘tkinchi dunyoning bema‘ni jihatlarini ko‘rib qattiq iztirob chekadi. Insonlarni XX asr fojialari mohiyatidan ogoh etishga urinadi. Romanda adib Usmon ruhiy kechinmalarini uning olam, odam va hayotga munosabatini tasvirlashda ramziy-majoziy ifodadan mohirona foydalanadi. Romandagi quduq moddiylashtirilgan ramziy detal bo‘lib, u butun avlodlarga unuttirilgan, ammo aziz xotiralar va qalb javharida asrab kelinayotgan merosiy ma‘rifat va ziyodir. U yerga yig‘ilganlar ilm-ma‘rifat ahlidir. Quduq tepasidagilar esa kundalik tashvishlar bilan o‘ralashib qolgan, buguni bilan yashashga mahkum olomon ramzidir. Roman qahramoni Usmonning ulardan ajralib, yolg‘izlikni his qilishi ruhiy-ma‘naviy jihatdan o‘zi hamrohlik qilib kelayotgan insonlardan bir qadar ustun turishiga ishoradir. Omon Muxtorning “Tepalikdagi xaroba” romani qahramoni Mirza G‘olib o‘z sezgi-kechinmalari, kayfiyati olamida yashaydi va harakat qiladi. Romanda XX asr boshlarida tafakkurda qilingan o‘zgarishlarning samarasiz kechgani badiiy tahlil etilgan. Bunda adib bir qator ramzlarga murojaat qiladi. Ijodkor insonning tarixiy burilishlar davridagi yashash tarzi masalasini keng tahlil etgan. Uning qahramoni Mirza G‘olib tevarak-atrofdan bo‘layotgan hamma ishlar uchun o‘zini aybdor deb bilib, kundalik hayotda o‘zini anglab yetishga harakat qiladi. Omon Muxtor ushbu romanida borliqni sinergetik bilish uslubiga tayanib, hayotning chin mohiyatini ochadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli **“Omon Muxtor romanlarida shakliy-kompozitsion ixchamlik”** deb nomlangan. Mazkur faslda adibning “Maydon” romani tahlilga tortilgan bo‘lib, badiiy asar kompozitsiyasi shakl bilan bevosita bog‘liqligi, u orqali yozuvchining asarda amalga oshirilgan niyati, ijodkor adabiy

¹⁰ Omon Muxtor. Афлотун. Роман ва қиссалар. – Т.: Маънавият, 1998

qahramonlarining tashqi portretini batafsil tasvirlamay, bir necha yorqin detallar bilan ta'riflashi kabi ixcham ifoda usullari tahlil etilgan.

Omon Muxtor jahon va o'zbek romanchiligidagi o'zgarish va yangilanishlarga tayangan holda shaklan yangi va chuqur mazmundor romanlar yaratadi. Adib romanlarining ko'pchiligi hajman g'oyatda ixchamdir. Ijodkor romanlarini o'rganishdan oldin badiiy shakl masalasiga qisman to'xtalib o'tamiz.

Shakl - adabiy asarlar mazmunini ochish usuli bo'lib, badiiy asar elementlari shakldan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emas. Adabiy-badiiy shakl ko'p qirrali, murakkab hodisadir. Badiiy asar shaklini tahlil qilishda uning obrazlilik, kompozitsiyasi, nutq tuzilishiga e'tibor berish lozim.

Adibning "Maydon" romani 85 sahifadan iborat. Yozuvchi shu ixcham shakldagi asarda zamondoshlari qiyofasini mohirona chizib bergan. Romanda ishtirok etuvchi qahramonlar umumlashtiruvchi xarakterga ega. Roman shakli tuzilishiga ko'ra ikki qismdan iborat. Yozuvchi asar qismlarini "Birinchi holat", "Ikkinchi holat" tarzida beradi. Romanning birinchi qismida 12 nafar qahramonning osma quti ya'ni liftga qamalib qolishi tasvirlanadi. Ikkinchi qismida esa asar qahramonlarining lift dan qutilgandan keyingi holati aks ettirilgan. Romanda ishtirok etuvchi qahramonlar umumlashtiruvchi xarakterga ega. O.Muxtor asar qahramoni ichki olamini chizishga, o'quvchini fikriy muloqotga chorlash orqali personajlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga urinadi. "Maydon" romanidagi portret tasvirlaridan ayrimlariga murojaat qilamiz. Adib qahramonlar ichida hikoyachiga yaqinrog'i va u hurmat qiladigan kishilardan biridir. Adibning yozgan she'r, hikoyalari haqida hikoyachi o'z fikrlarini bildirib, o'zni bilan ulardan ayrimlarini keltirib o'tadi. Asarda adibning yashash tarzi, yozgan asarlari, hikoyachining unga munosabati keng tasvir etiladi. Natijada adib romanning asosiy qahramonlaridan biri sifatida gavdalanadi. *"Men Adibning barcha yozganlariga tushunavermaganimdek, u nega uzluksiz-tinmay mehnat qiladi?! Murodi nima?! – ekanligiga ham tushunmayman."*

Omon Muxtorning "Maydon" romanida roviy kuzatuvchi va voqealar ishtirokchisi sifatida namoyon bo'ladi. Romandagi hikoyachi asardagi boshqa personajlar kabi oddiy odam, u o'z hayotiy kuzatishlaridan kelib chiqib so'z yuritadi.

O.Muxtor ushbu romanida shakl va mazmun mutanosibligiga e'tibor beradi. U ixcham shaklda o'ziga xos muammolarni badiiy yechimini topishga urinadi. Ammo romanda ayrim juz'iy kamchiliklar ham uchraydi. Romanning bir nechta o'rnida asar bosh qahramoni kim? degan savol tashlanib, yozuvchi buni takror-takror keltirish shart emasdek, unga yechim topishga harakat qiladi.

Asardagi har bir tasvir badiiy mantiqqa asoslangan bo'lib, yozuvchi ularni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Roman tarkibida ko'pgina she'rlar, hikoyalar, termalar, mulla tilidan berilgan munojot singari janr namunalari keltirilib, ular asardagi lirizmni kuchaytiradi, muayyan fikrni badiiy asoslashga xizmat qiladi.

Bobning uchinchi fasli **"Ffu"romani kompozitsiyasidagi uslubiy o'ziga xosliklar** deb nomlangan. Ushbu faslda Omon Muxtorning "Ffu" romani tahlilga tortilgan. Roman matnida reminissensiya adabiy hodisasining namoyon bo'lishi, boshqa ijodkorlardan o'z botiniy kechinma-hollariga esh tuyg'ular ifodalangan

satrlarni olish orqali ishoraviylikni kuchaytirilishi, ekspressivlikni oshirishiga harakat qilganligi xarakterlar tahlili orqali ochib berilgan.

Bu roman adib ijodidagi eng qisqa, shakli ixcham romanlardan biri bo'lib, umumiy hajmi 76 sahifani tashkil etadi. Romandagi badiiy mazmun zalvorli va ko'p qirralidir. Asardagi har bir qahramon va personaj yozuvchi g'oyaviy-badiiy maqsadini yoritishga yo'naltirilgan. "Ffu" rivoyat shaklidagi realistik romani shakliy ixchamligi, mavzu va g'oyaning o'ziga xos uslubda ifodalangani bilan ajralib turadi. Asar voqealari Sharq mamlakatlarining bir viloyatida kechadi. Uning kompozitsion tuzilishi va falsafiy konsepsiyasida o'zbek sehrli-fantastik e'taklariga xos jihatlar, yetakchi motivlar muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, prologlar syujet rivojidan oldin keladi va u orqali asar voqealarining dastlabki sabablari ochib beriladi. "Ffu" romani prologida adib o'tmish, bugungi kun va dunyoda aqlli odamlar ko'pligi haqida qisqacha so'z yuritadi. Yozuvchi romanda hikoya qilinayotgan ushbu rivoyat aqlli odamlar haqidaligini aytib, asar syujeti voqealarini boshlaydi.

Roman-rivoyatning ko'plab o'rinlari kitobxonga xalq og'zaki ijodi namunalari, mumtoz va zamonaviy adabiyot asarlarining o'ziga tanish ayrim o'rinlarini eslatadi. Chunki hodisalararo dialogik munosabat yuzaga chiqadi. Omon Muxtor romanida turli asarlardan keltirgan parchalar har xil shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Keltirilgan she'riy matnlar qo'shtirnoqsiz, to'g'ridan-to'g'ri beriladi.
2. She'riy misralar qo'shtirnoq ichida berilib, asar mazmuniga uyg'unlashtiriladi.
3. Ayrim asarlarning mazmuni eslab o'tiladi.
